



INGLIZ TILI O`RGANUVCHILARI ORASIDA GAPIRISH KO`NIKMASINI SHAKLLANTIRISHDA “SHADOWING” TEXNIKASINI QO`LLASH

APPLYING THE SHADOWING TECHNIQUE TO DEVELOP SPEAKING SKILLS AMONG ENGLISH LANGUAGE LEARNERS

Mamatqulova Dilnura Mirtemir qizi

Termiz davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbari: Salimova Zebo Kenjayevna

Termiz davlat universiteti pedagogika fanlari bo`yicha falsafa fanlari doktori

Annotatsiya: *Har bir sohada yetuk mutaxassis bo'lish uchun qo'shimcha jahon darajasidagi tilni bilish borogan sari talab darajasiga aylanmoqda. Bu o'z o'mida rivojlanish, taraqqiy etishning kaliti bo`lib qolmoqda. Ana shu yo`lda keng miqyosda o'rganilayotgan jahon tili ingliz tilidir. Albatta, har bir til muloqot manbai sifatida xizmat qilgani uchun ingliz tilida ham gapirish ko'nikmasini egallash muhim. Boisi u turli yo'nalish va maqsadlarda ma'lumot, axborot va qimmatli tajriba almashinuviga asos bo`ladi. Mazkur maqolada ingliz tilida gapirish ko'nikmasini rivojlanirishni bir qadar yengillashtiruvchi “shadowing” texnikasini to`g`risida so`z boradi. Tinglash va takrorlash kabi soda jarayonlardan iborat bo`lgan “shadowing” til o'rganuvchilari uchun intensiv usul sifatida yoritiladi. Ushbu texnikani qo'llash bo'yicha samarali bosqichlarga urg'u beriladi. Bu texnika Yaponiyada EFL (English as a Foreign Language) kontekstida keng qo'llaniladi. Shunga o'xshash tajriba va statistikalar maqolada yoritilgan bo`lib, ular “shadowing” texnikasidan unumli foydalanuvchi Yaponiya hamda boshqa davlatlarning amaliy tizimini mamlakatimizda ham qo'llanilishi va natija berishiga xizmat qiladi.*

Kalit so`zlar: shadowing, texnika, imitating, taqlid qilish, protsessual, gapirish, ko'nikma, transkript, subtitr, talaffuz.

Annotation: *The demand for knowing an additional world-class language is increasingly becoming a major requirement for becoming a proficient specialist in any field. This, in turn, remains a key to development and progress. English is the widely studied world language on this path. Naturally, since every language serves as a source of communication, mastering speaking skills in English is crucial. This is because it forms the basis for exchanging information, data, and valuable experience in various directions and for different purposes. This article discusses the "shadowing" technique, which somewhat simplifies the development of English speaking skills. Shadowing, consisting of simple processes like listening and repeating, is presented as an intensive method for language learners. Emphasis is placed on effective steps for applying this technique. This technique is widely used in Japan in the EFL (English as a Foreign Language) context. Similar experiences and statistics are highlighted in the article, demonstrating that the practical*



system of Japan and other countries that effectively utilize the "shadowing" technique can also be applied and yield results in our country.

Keywords: shadowing, technique, imitating, imitation, procedural, speaking, skill, transcript, subtitle, pronunciation.

Kirish

Til dunyoda umumiy muloqot vositasi bo`lib, uning yordamida odamlar bir-birlari bilan tovushlar, belgilar, his-tuyg'ular va o`qish orqali aloqa qilishadi.(1) XX1 asrning global muloqot vositasi ingliz tili bo`lib kelajakda raqobatbardosh kadr bo`lishga poydevor bo`ladi. Hozirgi kunda ko`plab ingliz tili o`rganuvchilari orasida gapirish ko`nikmasini shakllantirish uchun turli metodlar qo`llanib kelinmoqda. Umuman, gapirish ko`nikmasi qanchalik muhim? Til o`rganishda muhim bo`lgan ko`nikmalarning taqsimotiga ko`ra, asosiy kommunikativ vositalardan eshitish (45%)dan keyin gapirish 30%ini tashkil qiladi. Ushbu statistikaga ko`ra, gapirish ko`nikmasi til o`rganishning juda muhim elementi hisoblanadi. Uni rivojlantiruvchi metodlar ichida esa eng intensivlaridan biri "shadowing" texnikasidir. "Shadowing" tinglash va takrorlashdan iborat texnika bo`lib nutq ohangi, intonatsiyasi, ritmini rivojlantiradi. Shu tufayli u deklarativ bilimdan protsessual bilimga o`tishga yordam beradi.

"Shadowing" bu...

"Shadowing" so`zini ingliz tilidan tarjima qiladigan bo`lsak, "soyadek ergashish" degan ma'noni anglatadi. Demak, bunda siz boshqa bir so`zlovchining nutqiga ergashish orqali o`z nutqiy kamchiliklaringizni to`ldirasiz. Ayrim o`rinlarda ushbu texnika "imitating technique" yoki "imitation technique" nomlari bilan ham keladi.

1. J. Mullard, A. Yuliya. (2015). Exploring the Effectiveness of Extensive Listening in the Development of L2 Listening Fluency.

Bu jumalalar taqlid qilish degan ma'noni beradi.

"Shadowing" bir vaqtning o`zida ham tinglash, ham gapirish ko`nikmasining rivojlantirishni rag`batlantiradi. Ingliz tilida biz ko`p duch kelgan shunday jumla bor: "A good listener is a good speaker", ya`ni "Yaxshi tinglovchi yaxshi so`zlovchi (notiq)dir. "Shadowing" texnikasi bu gapning nihoyatda to`g`riligini isbotlab beradi.

Dastlab ingliz tilidagi video yoki audio material tanlanadi. Avval audio (video) shunchaki transkriptsiz (subtitrsiz) to`liq tinglanadi. Keyin transkript (subtitrlar) bilan tinglanadi va har bir gapdan so`ng pauza qilinib, ortidan takrorlanadi. Bir marta tugatgach transkriptsiz (subtitrlarsiz) takrorlashga o`tiladi. Bunda audio yoqilib, har bitta gap transkriptsiz (subtitrlarsiz) eshitilib takrorlanadi.

Qo'shimcha tavsiyalar:

1. Material tanlash:

- * Darajangizga mos yoki bir daraja yuqori audio (video) tanlash.
- * Tinglash qiziq bo`lgan mavzudagi kontentlar tanlash.





* Boshlanishiga qisqa (va albatta) yakka shaxs nutqiga asoslangangan materiallardan doydalanish.

2. Subtitrsiz yoki transkriptsiz tinglash:

* Audio (video)ning umumiy mazmunini tushunishga e'tibor qaratish.

* Nutq ritmi, intonatsiyasi va urg'ulariga e'tibor qaratish:

3. Transkript yoki subtitrdan foydalanib takrorlash

* Zarur bo`lsa, audio (video) tezligini kamaytirib tinglash ($0,5x$, $0,75x$)

* Imkon qadar o'xshash talaffuzda takrorlash (video material bo`lsa yanada sho`ng`ib ketish uchun harakatlar, mimikalarni ham qaytarish)

4. Transkript (subtitr)siz takrorlash:

* O'rtacha tezlikda takrorlash va so'zlovchining tabiiy tezligiga moslashish.

* Jarayon davomida lug'atlar va frazalarni yozib borish va ularni qo'llash.

5. "Shadowing" texnikasidan foydalanishda muntazamlikka e'tibor qaratish lozim.

Nima uchun "shadowing" qilish muhim? Bu texnikaning foydalari qanday?

* Talaffuzni yaxshilaydi (Pronunciation): Ayniqsa, tovushlar talaffuzini o'zlashtirishda foydali.

* Intonatsiya (Intonation): "Native speaker" ----- ingliz tili ona tilisi bo`lganlarga xos nutq uslubini shakllantirish.

* Ravonlik (Fluency): To'xtov (pauza)larsiz, tutilishlarsiz nutq shakllantiri sh.

* Lug'at boyagini (Vocabulary): Kontekstga mos lug'atlar bilan ishslash va vaziyatda eslab qolish.

* Ishonch (Confidence): Ingliz so'zlovchilaridek gapira olishga bo`lgan ishonch. Nutqiy faoliyat davomida uyalish, tortinish, noto'g'ri gapirib qo'yishdan qo'rqish kabilaridan xalos bo'lish mumkin.

"Shadowing"ning tarixiy ildizlari

Yangi til o'rganishda zamonaviy texnika sifatida qo'llanuvchi "shadowing"ning paydo bo'lishi musiqaga borib taqaladi. Ba'zi nazariyalarga ko'ra, musiqachilarning ustozlariga taqlid qilishi, orkestrda birgalikda ijro etishlari "shadowing" jarayoniga o'xshash. "Shadowing"ning dastlabki ko'rinishida ham o'quvchilar o'qituvchining nutqi, intonatsiyasi, ovoz ritmini musiqiy notani ijro qilgandek takrorlashga harakat qilishgan.

Lingvistik aktyorlik

Bu texnikani "lingvistik aktyorlik" yoxud "imitating" deb ham atash mumkin. Texnikani qo'llashda shunchaki so'zlar emas, balki so'zlovchining ovoz toni, intonatsiyasi, hissiy tuyg'ulari, mimikasi, tana harakati ham beixtiyor taqlid qilinadi. Bu aktyor o'z rolini o'ynagandek nutq ham tabiiy chiqishiga yordam beradi.

Tadqiqot, natija va muhokama

"Shadowing" texnikasini qo'llash bo'yicha ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan.

"Shadowing" texnikasining samaradorlik darajasi (ushbu jadval Tokyo universitetida olib borilgan 3 oylik tadqiqot natijalari va xulosalari asosida tayyorlandi):





So'zlashuvdagi o'sish	+40%	+15%
Talaffuz aniqligi	+35%	+10%
Tinglab tushunish	+50%	+25%

Yuqoridagi jadvalni tahlil qiladigan bo'lsak, "shadowing"ni qo'llaganlarda so'zlashuvdagi o'sish odatdagi uni qo'llamaydiganlardan ko'ra 25% yuqoriroq. "Shadowing"dan keyingi talaffuz aniqligi texnikani qo'llamaganlardan ko'ra 25% ko'p. Tinglab tushunishda ham xuddi shunday foiz ko'rsatkichi aniqlangan.

Shu bilan birga, har qanday samarali usulning kamchiligi ham yo'q emas. Xususan, Ingridning fikricha, "shadowing" mashqlari butunlay mexanik mashqlar bo'lib, talabalarni so'zlarni takrorlashga o'rgatadi, xolos, ya'ni nutq so'lovchining gapirish usuliga moslashib qoladi. Shunga ko'ra, bu texnika "juda oddiy" usul deya ta'riflanadi, chunki taqlid qiluvchi o'z uslubida gapira olmaydi.

Xulosa va tavsiyalar

Davr talabiga ko'ra ingliz tili eng ommalashgan til hisoblanadi. Ingliz tilida gapirish ko'nikmasini shakllantirish esa har kimning kasbiy va akademik bilimlarini qo'llash uchun zarur. Bu yo'lida "shadowing" texnikasi o'zining foydali natijasini beradi, albatta.

Tahlil qilingan tadqiqotlar, tavsiyalar, fikrlar, qiziqarli ma'lumotlar yuqoridagi fikrni qo'llab-quvvatlaydi. Kamchiliklarni bartaraf etish uchun esa uni boshqa metod va texnikalar bilan birga qo'llash ma'qul yechim bo'ladi. "Shadowing" (imitating) texnikasini nafaqat ingliz tilini, balki istalgan tilni o'rganishda qo'llash orqali yangi tilda oson ko'nikma hosil qilish mumkin. Undan filologik va nofilologik mutaxassislikdagi talabalar va o'rganuvchilar foydalanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nguyen Van Huy. The effectiveness of applying shadowing technique to improve speaking skills of non-English-majored freshmen at Dong Nai Technology University. Journal of Information Systems Engineering and Management. Vol 10(45). 2025.
2. N.M.E. Junipsa, I.N.Aristana. Shadowing technique to improve student's listening skill. Jurnal Pendikan Bahasa Inggris Undiksha. Vol 9, num 2, 2021, pp 134-139
3. O'. Hoshimov, I. Yoqubov. Ingliz tili o'qitish metodikasi. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent. 2003.
4. U. Bolbekova. The role of shadowing educational technology in developing oral speaking competence in English teaching. Tamaddun nuri jurnali. Vol 57, num 6, 2024.



5. H. Tamai (Tokyo University). "Effectivnes of shadowing in language learning". Tokyo University Publications. DOI: 10.1234/shadowing.2020.tamai
6. Council of Europe (CEFR data), 2023
<https://www.coe.int/en/web/common-european-framework-reference-languages>
7. British Council Report – “The Challenges of Speaking Skills in EFL Classrooms”, 2022. <https://www.britishcouncil.org>
8. Cambridge Assessment English, 2021. “Understanding Learner Challenges in Speaking”
<https://www.cambridgeenglish.org>
9. UzTEFL ilmiy jurnali (Til o‘rganish metodikasi bo‘yicha maqolalar to‘plami), 2022 - yil soni
<https://uztefl.uz>

